

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI OQITISHDA AMALIY
METODNING AHAMIYATI****Baltamuratova Aksungul Perdebaevna****Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,****Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası dotsent v.b.****Isabekova Diyana****Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14964468>**

Annotatsiya: Maqolada tabiiy fan darslarida amaliy ishlarni tashkil etish va ulardan foydalanish, ularni tashkil etishni amalga oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tabiatshunoslik, atrof muhit, kasbiy sifatlar, tabiat qonunlari, amaliyot, tabiiy amaliyot, ilmiy tajriba, ko'rgazmalilik va amaliy ish, voqea, hodisalar, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы организации и использования практических работ на уроках естествознания, реализации их организации.

Ключевые слова: Естествознание, Природа, профессиональные качества, законы природы, практика, природопрактика, научный опыт, демонстрационная и практическая работа, мероприятия, мероприятия, письменные упражнения, лабораторные работы, школьный земельный участок, уголок живой природы.

Abstract: The article covers the issues of organization and use of practical work in natural science lessons, implementation of their organization.

Key words: Natural science, Environment, professional qualities, laws of nature, practice, natural practice, scientific experience, demonstration and practical work, events, events, written exercises, laboratory work, school land area, corner of living nature.

O'quvchilarning bo'lajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o'rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda.

Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o'rganuvchi fan bolib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi [1, 2]. Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi.

Bilim odamlar miyasida o'z-o'zidan paydo bo'lmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bo'lib, bu o'z navbatida, odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi [3, 4].

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omili. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yo'l qoymaydi.

2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.

3. Amaliyot bilish jarayoninig haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi [5, 6].

Bilishning aniqligi muayyan obyekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham boshqacha bo'lishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100°C da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bolsa, u aniq -konkret hisoblanadi [7, 8]

Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir [9, 10].

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi [11, 12].

Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi [13, 14].

Amaliy uslublarning turlariga :

1. O'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.
2. Rasm chizishi.
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.
5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Baltamuratova A.P., U. Ch.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyatini tashkil etish // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* (E) ISSN: 2181-1784 SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(2), Feb., 2023. - Pp. 318-323.
2. Балтамуратова А.П. Развитие творческой деятельности будущих педагогов начального образования в контексте развивающего обучения // *Нукус ДПИ "Fan va jamiyat" ilmiy-uslubiy jurnali*. 2022. 4-son. Б.45-47.
3. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligi // *TDPU "Ilmiy axborotlari" jurnali* 11-son 2022.
4. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy faoliyatining mazmuni va tuzilishi // *UzMU xabarlari ilmiy jurnali*, 1/1 2023 ISSN 2181-7324
5. Baltamuratova A.P. Efficiency of improving the creative activity of the future primary educational teacher in the process of professional training // *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, JIF:7.2 56–60. Berlin 10785, Germany 16 January 2023. <https://www.sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/512>
6. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi faoliyatida pedagogik va ijodiy

- qobiliyat. *Miasto Przyszłości* Kielce Impact Factor: 9.2.
2022 <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/822/76>
7. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini takomillashtirish // *Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations*, (2022, November 28) Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7370316>
8. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari / «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar, nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, Respublika onlayn konferensiya, Attribution 4.0 International (2022). 1(27), 138-148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7376276>
9. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish / «XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda talabalarining roli» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya I-qism. Jizzax shahri 18 noyabr 2022 yil
10. Балтамуратова А.П., Абдіқалиева В.Т. Бастауыш мектептері оқушылардың шығармашылық қабілетін дамыту // *International scientific journal*. Volume 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7295379>
11. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.
12. Салаева М.С. Педагогнинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришнинг психологик механизмлари // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» журналы № 6/3 - 2022 жыл. – Б. 83-88.
13. Салаева М.С., Джумабаева М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // *UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali* ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - С.54-60. www.academscience.uz
14. Salayeva M.S. Pedagog professionalizmini rivojlantirishning akmeologik determinantlari // *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, Vol. 10 (2024). <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.930>
15. Salayeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / “Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to'plam. 2021-yil 5-may. - B.230-234.